Ўзбекистон Республикаси
Марказий банкида
2023 йил “ 7 ” декабр да
рўйхатга олинган

Рўйхатга олиш рақами 37/2

Ўзбекистон Республикаси
Марказий банки раисининг
биринчи ўринбосари
Н.Н. Сайдуллаев

М.Ў.

# “МИКРОКРЕДИТБАНК”
# акциядорлик-тижорат банки
# Уставига киритилган
# ўзгартишлар

**“ТАСДИҚЛАНГАН”**
“Микрокредитбанк” АТБ
Кузатув кенгаши мажлисининг
2023 йил “ 3 ” ноябр даги
38 -сонли баённомаси билан

**Кузатув кенгаши раиси**

О.Р. Исаков

М.Ў.

Тошкент – 2023

**“Микрокредитбанк” акциядорлик-тижорат банки Уставига киритилган ўзгартишлар**

**1. Уставнинг 5.2-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:**

“5.2. Банкнинг устав капитали миқдори 3 795 927 089 664 (уч триллион етти юз тўқсон беш миллиард тўққиз юз йигирма етти миллион саксон тўққиз минг олти юз олтмиш тўрт) сўмни ташкил қилади ва номинал қиймати 1 068 (бир минг олтмиш саккиз) сўм бўлган 3 554 103 848 (уч миллиард беш юз эллик тўрт миллион бир юз уч минг саккиз юз қирқ саккиз) дона эгасининг номи ёзилган оддий ва 135 000 (бир юз ўттиз беш минг) дона эгасининг номи ёзилган имтиёзли жойлаштирилган акциялардан иборат”.

**2. Уставнинг 6.9-банди қуйидаги таҳрирда баён этилсин:**

“6.9. Эълон қилинган акциялар: Банк устав капиталини ошириш мақсадида, жойлаштирилган акцияларига қўшимча равишда жойлаштиришга ҳақли бўлган эълон қилинган акцияларнинг миқдори номинал қиймати 1 068 (бир минг олтмиш саккиз) сўмлик 3 183 341 897 (уч миллиард бир юз саксон уч миллион уч юз қирқ бир минг саккиз юз тўқсон етти) дона умумий қиймати 3 399 809 145 996 (уч триллион уч юз тўқсон тўққиз миллиард саккиз юз тўққиз миллион бир юз қирқ беш минг тўққиз юз тўқсон олти) сўм бўлган, эгасининг номи ёзилган, ҳужжатсиз шаклдаги, оддий акциялардан иборат”.

**Бошқарув раиси** **О.А. Бутаев**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT SHAHRI "MIKROKREDITBANK" AKSIYADORLIK-TIJORAT BANKI MKB

MKBANK

| | |
|---|---|
| **"MIKROKREDITBANK" AKSIYADORLIK-TIJORAT BANKI** | **АКЦИОНЕРНО-КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК «МИКРОКРЕДИТБАНК»** |
| **KUZATUV KENGASHI MAJLISINING BAYONNOMASI** | **ПРОТОКОЛ ЗАСЕДАНИЯ НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА** |
| 38-sonli<br>2023-yil 3-noyabr<br>Toshkent shahri, Lutfiy ko'chasi, 14<br>*Majlis boshlanish vaqti: 18.00* | №38<br>«3» ноября 2023 года<br>город Ташкент, улица Лутфи, 14<br>*Время начала заседания: 18.00* |
| **Majlisda ishtirok etganlar:** | **Участники заседания:** |
| **Raislik qiluvchi: O.Isakov – Bank Kuzatuv kengashi raisi** | **Председательствующий: О.Исаков – Председатель Наблюдательного совета Банка** |
| **Kuzatuv kengashi a'zolari:** N.Xusanov, Sh.Saliyev, B.Radjabov, F.Nurgaliyev, D.Mixmanov, B.Xoshimov, G.Paresishvili, A.Kazaryan | **Члены Наблюдательного совета:** Н.Хусанов, Ш.Салиев, Б.Раджабов, Ф.Нургалиев, Д.Михманов, Б.Хошимов, Г.Паресишвили, А.Казарян |
| **Ishtirok etmagan Kuzatuv kengashi a'zolari:** mavjud emas | **Не участвовавшие члены Наблюдательного совета:** не имеются |
| **Majlis kvorumga ega: Kvorum – 100%** | **Заседание имеет кворум: Кворум – 100%** |
| **Taklif etilganlar: Bank Boshqaruvi a'zolari va Bosh ofis tegishli tarkibiy bo'linmalari rahbarlari** | **Приглашенные: Члены Правления и руководители соответствующих структурных подразделений Головного офиса Банка** |
| **Kuzatuv kengashi kotibi:** Z.Turdibekov | **Секретарь Наблюдательного совета:** З.Турдибеков |
| Majlis sirtdan ovoz berish (so'rov) yo'li bilan o'tkazildi. | Заседание проведено путем заочного голосования (опросным путем). |
| **KUN TARTIBI** | **ПОВЕСТКА ДНЯ** |
| 1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga o'zgartishlar kiritish. | 1. Внесение изменений в Устав Акционерно-коммерческого банка «Микрокредитбанк». |
| **Kun tartibidagi masala yuzasidan,** quyidagilar qayd etildi. | **По вопросу повестки дня,** было отмечено следующее. |
| O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-avgustdagi PQ-284-sonli qarori asosida Bank ustav kapitalidagi davlat ulushini ko'paytirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi | В целях увеличения государственной доли в уставном капитале Банка на основании постановления Президента Республики Узбекистан от 23 августа |

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Bank o‘rtasida 2023-yil 31-avgustda Bankning aksiyalariga obuna bo‘lish bo‘yicha tuzlilgan shartnomaga muvofiq Bankda Iqtisodiyot va moliya vazirligi nomiga ochilgan aksiyalar bo‘yicha obuna hisobvarag‘iga vazirlik tomonidan 250,0 mlrd so‘m mablag‘ o‘tkazib berildi.

Bank Kuzatuv kengashi majlisining 2023-yil 15-sentabrdagi 35-sonli bayonnomasiga muvofiq Bank ustav kapitalidagi Davlat ulushi – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ulushini ko‘paytirish maqsadida Bakning qo‘shimcha aksiyalari chiqarildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2023-yil 29-sentabrda P0005-30-son bilan ro‘yxatga olingan Aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorga asosan Bankning nominal qiymati 1 068 so‘m bo‘lgan 234 082 397 dona 249 999 999 996 so‘mlik oddiy aksiyalari Iqtisodiyot va moliya vazirligiga 2023-yil 25-oktabrda to‘liq joylashtirildi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan obuna hisobvarag‘iga o‘tkazib berilgan mablag‘ hamda qo‘shimcha chiqarilgan aksiyalar o‘rtasidagi “4 so‘m” farq summa vazirlik nomiga ochilgan obuna hisobvarag‘ida qoldiq bo‘lib qolishi va kelgusida vazirlikning bank ustav kapitalidagi ulushi ko‘paytirilgan yoki kamaytirilgan hollarda hisobga olinishi ko‘zda tutildi.

Mazkur qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirish natijasida, Bank ustav kapitali miqdori 3 545 927 089 668 so‘mdan 3 795 927 089 664 yetkazildi. Bunda, Bankning oddiy aksiyalari 3 554 103 848 dona va imtiyozli aksiyalari 135 000 donadan iborat bo‘lib, jami aksiyalar soni 3 554 238 848 donani tashkil etadi.

Bank Ustaviga ustav kapital miqdorini 249 999 999 996 so‘mga ko‘paytirish va e’lon qilingan aksiyalar sonini 234 082 397 donaga kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartishlar kiritilishi lozim.

2023 года №ПП-284, Министерством экономики и финансов Республики Узбекистан было перечислено 250,0 млрд. сум на счет подписки по акциям, открытый в Банке на имя Министерства, согласно заключенному договору о подписке на акции Банка между Министерством экономики и финансов и Банком 31 августа 2023 года.

В соответствии с протоколом заседания Наблюдательного совета Банка от 15 сентября 2023 года №35, были выпущены дополнительные акции Банка в целях увеличения государственной доли – доли Министерства экономики и финансов Республики Узбекистан в уставном капитале Банка.

На основании Решения о дополнительном выпуске акций, зарегистрированных Министерством экономики и финансов от 29 сентября 2023 года №P0005-30, были полностью размещены простые акции Банка в количестве 234 082 397 штук номинальной стоимостью 1 068 сум на сумму 249 999 999 996 сум Министерству экономики и финансов 25 октября 2023 года.

Было предусмотрено, что сумма разницы «4 сум» между средства, направленного Министерством экономики и финансов на подписной счет и акциями, дополнительно выпушенных останется остатком на подписном счете, открытом на имя Министерства и будет отнесена в зачет в дальнейшем в случаях увеличения или уменьшения доли Министерства в уставном капитале Банка.

В результате размещения дополнительных акций, уставный капитал Банка увеличился с 3 545 927 089 668 до 3 795 927 089 664 сум. При этом, простые акции Банка составит 3 554 103 848 штук, а привилегированные акции – 135 000 штук, общее количество акций составит 3 554 238 848 штук.

В Устав Банка должны быть внесены изменения, связанные с увеличением размера уставного капитала на 249 999 999 996 сум и уменьшением

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 75-moddasiga va Bank Ustavi 13.3-bandiga muvofiq, Bank Ustaviga ustav kapital miqdorini ko'paytirish hamda e'lon qilingan aksiyalar sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bank Ustaviga o'zgartishlar (matni ilovada keltiriladi) kiritish taklif etilmoqda.

Majlis ishtirokchilari muhokamasidan so'ng kun tartibidagi masala bo'yicha quyidagi qaror matni ovozga qo'yildi:

"1. Kun tartibidagi masala yuzasidan qayd etilgan axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin.

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga ilovaga muvofiq o'zgartishlar kiritilsin va tasdiqlansin.

Bank Boshqaruvi zimmasiga Bank Ustaviga kiritilayotgan o'zgartishlarni O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida qonunchilikda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish vazifasi yuklatilsin".

**Ovoz berildi:**

**Tarafdorlar** – O.Isakov, N.Xusanov, Sh.Saliyev, B.Radjabov, F.Nurgaliyev, D.Mixmanov, B.Xoshimov, G.Paresishvili, A.Kazaryan

**Qarshilar** – yo'q

**Betaraflar** – yo'q

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, Bank Kuzatuv kengashi

**QAROR QILADI:**

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan qayd etilgan axborot ma'lumot uchun qabul qilinsin.

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga ilovaga muvofiq o'zgartishlar kiritilsin va tasdiqlansin.

количества объявленных акций на 234 082 397 штук.

В соответствии со статьей 75 Закона Республики Узбекистан «Об акционерных обществах и защите прав акционеров» и пунктом 13.3 Устава Банка, внесение изменений и дополнений в Устав Банка, связанные с увеличением размера уставного капитала и уменьшением количества объявленных акций, входит в компетенцию Наблюдательного совета.

Исходя из вышесказанного, предлагается внести изменения в Устав Банка (текст приводится в приложении).

После обсуждения вопроса повестки дня участниками заседания на голосование поставлен следующий проект решения:

«1. Принять к сведению информацию, отмеченную по вопросу повестки дня.

Внести и утвердить изменения в Устав Акционерно-коммерческого банка «Микрокредитбанк» согласно приложению.

Возложить на Правление Банка осуществление регистрации изменений, вносимых в Устав Банка, в Центральном банке Республики Узбекистан в порядке, установленном законодательством».

**Голосовали:**

**За** – О.Исаков, Н.Хусанов, Ш.Салиев, Б.Раджабов, Ф.Нургалиев, Д.Михманов, Б.Хошимов, Г.Паресишвили, А.Казарян

**Против** – нет

**Воздержались** – нет

Исходя из вышеизложенного, Наблюдательный совет Банка

**РЕШИЛ:**

1. Принять к сведению информацию, отмеченную по вопросу повестки дня.

Внести и утвердить изменения в Устав Акционерно-коммерческого банка «Микрокредитбанк» согласно приложению.

Bank Boshqaruvi zimmasiga Bank Ustaviga kiritilayotgan oʻzgartishlarni Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankida qonunchilikda belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtkazish vazifasi yuklatilsin.

Kuzatuv kengashi majlisida kun tartibidagi masala boʻyicha tegishli qarorlar qabul qilingach, raislik qiluvchi O.Isakov majlisni yopiq deb eʼlon qildi.

Ushbu majlis bayonnomasi 2023-yil "10" noyabr kuni davlat (oʻzbek) va rus tillarida ikki nusxada tuzildi. Agar oʻqilishda farqlar mavjud boʻlsa, davlat (oʻzbek) tilidagi matn rus tilidagi matndan ustunlik qiladi.

Возложить на Правление Банка осуществление регистрации изменений, вносимых в Устав Банка, в Центральном банке Республики Узбекистан в порядке, установленном законодательством.

После принятия соответствующих решений по вопросу повестки дня на заседании Наблюдательного совета, председательствующий О.Исаков объявил заседание закрытым.

Настоящий протокол составлен «10» ноября 2023 года на государственном (узбекском) и русском языках в двух экземплярах. В случае разночтений текст на государственном (узбекском) языке превалирует над текстом на русском языке.

**Kuzatuv kengashi raisi /**
**Председатель Наблюдательного совета** — **O. Isakov /** **О. Исаков**

**Kuzatuv kengashi kotibi /**
**Секретарь Наблюдательного совета** — **Z. Turdibekov /** **З. Турдибеков**

**Kuzatuv kengashi a'zolari /**
**Члены Наблюдательного совета:**

**N. Xusanov /**
**Н. Хусанов**

**Sh. Saliyev /**
**Ш. Салиев**

**B. Radjabov /**
**Б. Раджабов**

**F. Nurgaliyev /**
**Ф. Нургалиев**

**D. Mixmanov /**
**Д. Михманов**

**B. Xoshimov /**
**Б. Хошимов**

**G. Paresishvili /**
**Г. Паресишвили**

**A. Kazaryan /**
**А. Казарян**

**Boshqaruv raisi /** **O. Butayev /**
**Председатель правления** **О. Бутаев**

27

«Mikrokreditbank» aksiyadorlik-tijorat banki
Joint-stock commercial bank «Microcreditbank»
**Акционерно-коммерческий банк «Микрокредитбанк»**

*100096, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Lutfiy ko'chasi 14*

***Tel.:** +998 71 207 46 51 (1104), **Aloqa markazi:** 1285*

***E-xat:** mikrokreditbank@exat.uz* ***www.mkbank.uz***

**«24» noyabr 2023 y.**
**№ 01-23/21421**

**O'zbekiston Respublikasi**
**Markaziy banki raisining**
**birinchi o'rinbosari**
**N. Saydullayevga**

Hurmatli Nodirbek Narzullayevich,

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Kuzatuv kengashining 2023-yil 3-noyabrdagi majlisida bank Ustaviga ustav kapital miqdorini ko'paytirish hamda e'lon qilingan aksiyalar sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartishlar kiritish va tasdiqlash to'g'risida qaror qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan, Sizdan "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Ustaviga kiritilgan o'zgartishlarni ro'yxatdan o'tkazishingizni so'raymiz.

Xatga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

1. "Mikrokreditbank" aksiyadorlik-tijorat banki Kuzatuv kengashi majlisining 2023-yil 3- noyabrdagi 38-sonli bayonnomasi 3 nusxada;
2. Bank Ustaviga kiritilgan o'zgartishlar matni 3 nusxada.

*Ilova:21 varaqda.*

Hurmat bilan,

**Boshqaruv raisi** **O.Butayev**

Ijrochi: Yu.Ashurov

27 NOV 2023 18935

**Тикилган ва рақамланган**

6 ( олти )

варақдан иборат

7 декабрь 2023 йил

Имзо

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MARKAZIY BANKI
THE CENTRAL BANK OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
Devonxona
Chancellery